



“SHIMOLIY MINTAQALARDA QISHLOQ XOJALIGINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI VA ULARNING INNOVATSION ECHIMLARI” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



UOʻT:631.56.635.6

POLIZ EKINLARINI SAQLASH DAVRIDA UCHRAYDIGAN KAMCHILIKLAR VA BARTARAF ETISH YOʻLLARI

Salilaeva Gulshad patullaevna,¹

Yusupov Risnazar Orazbaevich, q.x.f.d., (PhD)¹, q.x.f.d., dotsent²,

Qoraqalpogʻiston qishloq xoʻjaligi va agrotexnologiyalari instituti

Tel: +998 97 561 83 26

e-mail: risnazar@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19457830>

Annotatsiya. Maqolada Qoraqalpogʻiston hududi shimoliy tumanlarida poliz ekinlari mahsulotlarini saqlashga moʻljallangan omborxonalarining mavjud kamchiliklari va uni bartaraf etish yoʻllari keltirilgan. Poliz ekinlaridan saqlash uchun qovun, tarvuz va qovoqlar dala sharoitida maʼlum muddat qoldirish, saralash, tanlash, maxsus bogʻlarga bogʻlangan holda saqlash yaxshi samara beradiganligi keltirilgan.

Kalit soʻzlar. Poliz ekinlari, qovun, tarvuz, qovoq, havo harorati, havoning nisbiy namligi, shamollatish tizimi.

Аннотация. В статье представлены существующие недостатки складов, предназначенных для хранения бахчевых культур в северных районах Каракалпакстана, и пути их устранения. Для защиты бахчевых культур рекомендуемая оставлять дыни, арбузы и тыквы в полевых условиях в течение определенного времени, сортировать, отбирать и хранить их, привязанными к специальным нитям.

Ключевые слова. Бахчевые культуры, дыни, арбузы, тыква, температура воздуха, относительная влажность воздуха, система вентиляции.

Oʻzbekiston Respublikasida aholini yil davomida sifatli oziq-ovqat bilan taʼminlashda qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini saqlash sohasida jiddiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada sovutgichli omborlar infratuzilmasini yangilash va kengaytirish ustuvor yoʻnalishlardan hisoblanadi. Bunda mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, ichki bozorda mahsulotlar narxini barqaror saqlash va yoʻqotishlarni kamaytirish asosiy maqsad qilingan. Bugungi kunda respublika boʻyicha umumiy sigʻimi 1004,0 ming tonnadan koʻp boʻlgan 1904 dan ziyod sovutgichli omborlar mavjud. Umumiy sigʻimi eng koʻp boʻlgan sovutgichli omborlar respublikamizning Fargʻona, Samarqand, Toshkent, Andijon viloyatlariga toʻgʻri keladi. Qoraqalpogʻiston Respublikasida 60 ming tonnadan ortiq qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini saqlash omborlari mavjud boʻlib, bularda asosan meva-sabzavot mahsulotlari saqlanmoqda.

Qishloq xoʻjaligi mahsulotlaridan hudud sharoitida poliz ekinlari 10 ming gektardan oshiq maydonga ekilib, undan 199 377 tonna mahsulot olishga erishilmoqda. Poliz ekinlaridan qovun, tarvuz va qovoqning har xil navlari etishtirilib, asosan kechpishar navlari saqlashga qoʻyiladi. Qovun va qovoq mahsulotlari asosiy eksport boʻlayotgan mahsulotlardan hisoblanib, qoʻshni davlatlardan tashqari Evropa davlatlari, Arab davlatlari, Xitoy, Yaponiya, Buyuk Britaniya davlatlariga ham eksport qilish rejalashtirilmoqda. Qoraqalpogʻiston hududida qadimdan polizchilik sohasi bilan shugʻullanib kelayotganligi tufayli etishtirish, saqlash va qayta ishlash boʻyicha boy tajribaga ega dehqon va fermerlarimiz mavjud. Poliz ekinlari mevalari eng koʻp saqlanadigan omborlardan qovunxonalar hisoblanadi. Bu qovunxonalarda oʻrtacha bittasida 5000 ta poliz mahsulotlari saqlash imkoniyati ega. Saqlash davrida issiq va sovuq havo haroratiga bogʻliq bajariladigan ishlardan iborat.

Hudud sharoitida poliz ekinlarini mevalarini saqlash jarayonlarini bugungi kun talabiga mos echimlarni ishlab chiqish boʻyicha uchta tumandagi mevalarini saqlash boʻyicha mavjud muammolarni oʻrganildi. Poliz ekinlarini etishtirayotgan xoʻjaliklarda mevalarini uzoq muddatlarga saqlash orqali boshqa davlatlarga eksport qilish va mahalliy bozorlarni toʻltirishdan iborat. Eksport talabidan kelib chiqib, poliz ekinlari navlarini aniqlash, urugʻ oʻnib chiqqandan, hosil pishib yigʻilgunga qadar parvarish va sifatli agrotexnik tadbirlarni qoʻllash ishlari tashkillashtirish kuzda tutiladi. Sifatli mahsulot etishtirishda ijobiy



“SHIMOLIY MINTAQALARDA QISHLOQ XOJALIGINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI VA ULARNING INNOVATSION ECHIMLARI” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



taʼsir etadigan omillardan biri, navlarning ekish muddatlari, hosilning talab etilgan vegetatsiya davri uzoqligidir.

Tadqiqotlarimizda poliz ekinlarining saqlash muddatining uzoqligiga salbiy taʼsir koʻrsatadigan omillarni oʻrganishda, ekish muddatlarining v vegetatsiya davrida qoʻllaniladigan agrotexnik tadbirlarning sifatli oʻtkazilmasligini hisobga olishni taqozo etadiganligi maʼlum boʻldi. Shunki, ekish muddati erta yoki kech boʻlishi poliz ekinlari mevalarining ob-havo sharoitiga bogʻliq holda yoki pishib ketadi yoki toʻla etilmay qolish jarayonlari kuzatiladi. Bundan tashqari, koʻplab omborxonalardagi saqlash jarayonidagi poliz ekinlari mevalarining uzoq vaqt saqlanmasligi, qisqa vaqt ichida chirishi va sovuqdan zarar koʻrish holatlarini aniqlash talab etildi. Kuzatuvlarimiz davomida omborxonalarda bajarilayotgan ishlari, sharoiti oʻrganilib, mahsulotlarni saqlash boʻyicha tadbirlarni toʻgʻri bajarishini aniqlash va kamchilaklarni bartaraf etish uchun tadqiqotlar olib borishga kerak boʻladigan maʼlumotlar toʻplandi. Vujudga kelayotgan kamchiliklarni guruhlariga ajratilib tumanlardagi olib borilayotgan tadbirlarning samaradorlik darajasi uch yil davomida aniqlandi.

Natijada, poliz ekinlari mevalarini uzoq muddatda saqlash uchun tanlanmasdan omborxonalarga joylashi kuzatildi. Shunki, bu kamchiliklari tufayli saqlash davrida etilmaganlari va pishib oʻtib ketganlari uzoq vaqt saqlanmaydigan asosiy kamchiliklardan hisoblanadi. Bunday holatlar natijasida vujudga kelgan kamchiliklar oʻrtacha 65,5% ni tashkil qildi. Poliz ekinlari mevalarini oldin dala sharoitida, tashqi noqulay muhit omillariga bardoshligi oshirilmagan holda olib kelinganligi maʼlum boʻldi.

Saqlashda etishtirilgan poliz ekinlariga qoʻllaniladigan agrotexnik tadbirlarning toʻgʻri bajarilmaganligi tufayli 53,3%, omborxonlarning meva saqlash talabiga mos kelmasligi va kerak boʻladigan mikroiklimning yoʻqligi tufayli 43,2-57,7% kamchiliklarga yoʻl qoʻyilganligi aniqlandi. Keltirilgan kamchiliklar orasida poliz ekinlari mevalarini saqlash uchun talab etiladigan moddiy-texnik bazaning etishmasligi, olib kelinadigan mahsulotlar dalada tayyorlanganda va keyingi davrlarda zararkunandalari va kasalliklariga qarshi kurash tadbirlarining meʼyorida tashkillashtiril-maganligi, kerak boʻladigan ilmiy tavsiyalarining boʻlmaganligi tufayli mevalar turli darajada zararlanayotganligi aniqlandi.

Natijada, hudud sharoitida baʼzi omborxonalarda vujudga kelgan kamchiliklar darajasi 83,3-87,7% gacha ochib, toza turida saqlashga qoʻyilgan poliz ekinlaridan qovun mevalarining 37,4 %, tarvuzning-48,3 % va qovoqning esa 17,9 % toʻliq saqlanmaganligi maʼlum boʻldi. Demak, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish uchun poliz ekinlarini saqlash uchun moʻljallangan pishish va yigʻim-terim muddatini tashkillashtirish, saralash, tanlash va omborxonalarining ob-havo sharoitini doimiy sovutilgan va shamollatish tizimini taʼminlashdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, poliz ekinlarining kechpishar navlarini uzoq muddat sifatli saqlashni taʼminlashda bajariladigan asosiy tadbirlardan bu agrotexnik tadbirlar hisoblanadi. Poliz ekinlarining vegetatsiya davrida maxsus parvarish ishlarini ekin turiga va fazasiga bogʻliq tashkillashtirish talab etiladi. Mahsulotlarni saqlash davri oldidan bajariladigan maxsus tadbirlardan dala sharoitidan maʼlum muddat uzib qoldirish, tashish jarayonida mexanik va fizik jaraxot etkazmaslik, sifatli oʻtkazilib, bunda saralash, tanlash, kalibrlash, ishlov berish, bogʻlar bilan bogʻlash orqali omborxonalarga joylash lozim. Saqlash davrida ob-havo sharoitiga bogʻliq echik va oynalari ochilib, yopilish turish kerak. Havo harorati poliz ekinlari turlariga bogʻliq 0-10°C, havoning nisbiy namligi 75-85% atrofida boʻlishini taʼminlash tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

- 1.Eshmuratov.E.G. Paliz eginlerinde soriwshi ziyankeslerdin sanın basqarıwdagʻı qarsı gures ilajlarının ulesin ilimiy tiykarlaw. Monografiya. – Tashkent, 2025. – 188 b.
- 2.Salilaeva.G.P. Qoraqalpogʻiston sharoitida poliz ekinlari mevalarini saqlash va qayta ishlangan mahsulotlar tayyorlashni takomillashtirish. q.x.f.f.d. avtoreferati.. – Toshkent, 2025. – 46 b.